

O'zbekiston – Rossiya o'zaro hamkorlikni kengaytirish yo'lida

Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning mamlakatimizga davlat tashrifi doirasida O'zbekiston – Rossiya ta'lim forumi o'tkazilmoqda.

Xalqaro forum ishida ikki mamlakat prezidentlari administratsiyalari, hukumat rahbarlari, O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri va Rossiya Federatsiyasining ta'lim va fan vaziri hamda Rossiyaning 80 dan ziyod nufuzli oliy ta'lim muassasalari rektorlari qatnashmoqda.

2018-yil 19-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddolari kimyosi institutiga Sank-Peterburg davlat kimyo-farmatsevtika universiteti rektori Narkevich Igor Anatolyevich boshchiligidagi rossiyalik mehmonlar tashrif buyurdi. Uchrashuvda mehmonlar Institut tomonidan modernizatsiya qilingan GMP standartlari va muassasa faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, uchrashuv davomida farmatsevtika sanoatida xodimlarni tayyorlashda hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

